

**O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIKDAN KEYINGI YILLARDA
ERISHGAN YUTUQLARI VA QAYD ETGAN YUQORI KO'RSATKICHLARI.
JAHON ANDOZALARIGA MOS KELUVCHI ZAMONAVIYLIK**

Hodiyev Og'abek Oybek o'g'li

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro viloyati Professional ta'lif hududiy boshqarmasi G'ijduvon tuman 3-son kasb-hunar maktabi "Maxsus fanlar" o'qituvchisi

"Yosh tadqiqotchi", "Ta'lif iftixori" ko'krak nishonlari sohibi, O'zbekiston Ekologik partiyasi Navoiy viloyati kengashi a'zosi.

Annostatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning Mustaqillik yillari va uning keyingi bosqichlari davomida erishgan yutuqlari va qayd etgan ko'rsatkichlari haqida so'z yuritiladi. Jahon andozalariga mos keluvchi zamonaviylik haqida fikrlar haqida so'z boradi.

Annotation: This article talks about the achievements and recorded indicators of the years of Independence of Uzbekistan and its next stages. It talks about modernity that conforms to world standards.

Kalit so'zlar: UzDEUAVTO, YeOII, devalvatsiya, Uzbekistan Airways.

Keywords: UzDEUAVTO, YeOII, devaluation, Uzbekistan Airways.

Bundan o'ttiz uch yil avval O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilindi. Shu davr ichida yosh mamlakat qator qiyinchiliklarni yengib o'tib, turli sohalarda ajoyib natijalarga erishdi. Sputnik materialida O'zbekistonning o'tgan yillardagi eng yorqin voqealari bilan tanishing.

1991 yildan 2023-yilgacha bo'lgan asosiy voqealar xronologiyasi

1991 yil 31-avgust

Prezident Islom Karimov respublikaning davlat mustaqilligini e'lon qilgan

1991 yil 1-sentabr

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik kuni deb e'lon qilingan

1991 yil 18-noyabr

O'zbekiston respublikasining Davlat bayrog'i tasdiqlangan

1991 yil 29-dekabr

Respublika Prezidentining umumxalq saylovi bo'lib o'tgan. Islom Karimov O'zbekiston respublikasining birinchi prezidenti etib saylangan

1992 yil 28-yanvar

"O'zbekiston havo yo'llari" Milliy kompaniyasi tashkil etilgan

1992 yil 2-mart

Mamlakat BMTga a'zo bo'lgan

1992 yil 2-iyul

O‘zbekiston respublikasining Davlat gerbi tasdiqlangan

1992 yil 8-dekabr

O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan

1992 yil 10-dekabr

O‘zbekiston respublikasining Davlat madhiyasi tasdiqlangan

1994 yil 1-iyul

Milliy valyuta so‘mi muomalaga kiritilgan

1996 yil 19-iyul

Andijon viloyati Asaka shahrida “UzDEUAVTO” zavodi ishga tushirilgan

1999 yil 16-fevral

Toshkentda terrorchilik harakatlari sodir etilgan

2001 yil 14-15 iyun

O‘zbekiston “Shanxay forumi” (keyinchalik ShHT – Shanxay hamkorlik tashkiloti)ga a’zo bo‘lgan

2005 yil 13-may

Andijondagi tartibsizliklar tufayli fojiali voqealar sodir bo‘lgan

2011 yil 8-oktabr

Toshkentdan Samarqandga birinchi tezurar “Afrosiyob” poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yilgan

2016 yil 2-sentabr

O‘zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov vafot etgan

2016 yil 14-dekabr

Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston prezidenti lavozimiga kirishgan

2017 yil 5-sentabr

O‘zbekistonda so‘m devalvatsiyasidan keyin erkin valyuta konvertatsiyasi joriy etilgan

2018 yil 19-oktabr

O‘zbekistonda birinchi atom elektr stansiyasini qurish loyihasi ishga tushirilgan

2020 yil 11-dekabr

O‘zbekiston YeOIIda kuzatuvchi maqomini olgan

2021 yil 28-sentabr

20 yildan ortiqroq vaqtidan keyin Toshkent kinofestivali qayta tiklangan

2023 yil 30-aprel

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining referendumi o‘tkazilgan
Mustaqil O‘zbekiston

1991 yil 31-avgustda Toshkentda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining naybatdan tashqari 7-sessiyasi bo'lib o'tdi va unda O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilindi.

Shu kuni Oliy Kengashning respublika davlat mustaqilligi to'g'risidagi bayonoti qabul qilindi va tegishli qaror bilan 1-sentabr Mustaqillik kuni sifatida tasdiqlandi. Shu kuni "O'zbekiston Respublikasi" davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. O'zbekistonning asosiy milliy bayrami – Mustaqillik kuni har yili 1-sentabrdan nishonlanadi.

1991 yil 18-noyabrda, ya'ni mamlakat mustaqillikka erishganidan ikki oy o'tgach, O'zbekiston bayrog'i tasdiqlandi.

Bayroqdagagi moviy rang musaffo osmon va suv ramzidir. Oq rang tinchlik va poklik ramzi. Yashil rang mamlakatning unumдор tabiatining timsolidir. Qizil chiziqlar esa tomirlarda oqqan qon, hayotning ulug'vorligi ramizi.

Yarim oy va yulduzlar - yangi tug'ilgan yarim oy mustaqillik ramzi. 12 yulduz qadimiylar solnoma va O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan 12 davlatni anglatadi.

Islom Karimov davrining boshlanishi

1991 yil 29-dekabrda birinchi umumxalq prezidentligiga saylovlardan bo'lib o'tdi. Ovoz berish natijalariga ko'ra, Karimov eng yuqori natija bilan davlat lavozimini egalladi, unga saylovchilarining 86 foizi ovoz berdi.

1992 yil 28-fevralda "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi tashkil topgan. Bu voqealda O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasi rivojida yangi davrni boshlab berdi. Shu vaqt ichida davlat flagmani barqaror, xavfsiz va ishonchli aviatashuvchi sifatida butun dunyoda tanildi va tan olindi.

1992 yil 2-martda BMT Bosh Assambleyasining 82-yalpi sessiyasi qarori bilan O'zbekiston tashkilotga a'zolikka qabul qilindi. O'tgan yillar davomida mamlakat inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjalarga qo'shildi.

1992 yil 2-iyul – O'zbekiston Davlat gerbi qabul qilingan kun.

Gerbda tog'lar, darolar va so'l tomoni bug'doy boshoqlaridan, o'ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan.

Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

1992 yil 8-dekabr - O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu O'zbekiston hududida amaldagi eng oliy normativ-huquqiy hujjatdir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining tuzilishi muqaddima, 6 bo‘lim, 26 bob, 128 muddaga bo‘lingan.

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

- Sovet musiqasi ostida o‘zbek so‘zlari

- 1992 yil 10-dekabr - O‘zbekiston davlat madhiyasi tasdiqlandi.

Yangi Davlat madhiyасining bir nechta varianti taklif qilingan, lekin yakunda so‘z muallifligi atoqli o‘zbek shoiri Abdulla Oripovga (1941-2016) berildi. Shu bilan birga, 1947-yilda o‘zbek bastakori Mutal Burxonov (1916-2002) tomonidan yozilgan O‘zbekiston SSR madhiyasi musiqasi sifatida qoldi. Shunday qilib, mustaqil O‘zbekiston madhiyасida O‘zbekiston SSR madhiyasi musiqasidan foydalanilgan.

- So‘m — O‘zbekistonning pul birligi

1994 yil 1-iyulda milliy valyuta - so‘m muomalaga kiritildi. Dastlabki muomalaga chiqarilgan banknotlar va tangalar xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan.

1995-1996 yillarda banknotlar va tangalar ishlab chiqarishning to‘liq siklini joriy etish maqsadida Markaziy bank huzurida “Davlat belgisi” korxonasi tashkil etildi. Shuningdek, Qog‘oz fabrikasi, Bosma fabrikasi va zarbxonani o‘z ichiga oladi va "pul ishlab chiqarish" yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda mazkur korxona “Davlat belgisi” DUK sifatida faoliyat yuritmoqda.

1996 yil 19-iyulda Asakadagi avtomobil zavodining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi va bu nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun o‘ziga xos voqeа bo‘ldi.

Dastlab yetti modifikatsiyada taqdim etilgan Nexia, Damas va Tico yengil avtomobillarini ishlab chiqaruvchi zavodning dastlabki uchta ishlab chiqarish liniyasi ishga tushirildi, bu esa iste’molchilarga ushbu avtomobillarning keng tanlovini taqdim etish imkonini berdi.

1999 yil 16-fevralda Toshkentda bir qator kuchli portlashlar yuz berdi. Turli manbalarga ko‘ra, 13 dan 20 kishigacha halok bo‘lgan, 100 dan ortiq kishi jarohatlangan. O‘zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov hujumni, o‘z hayotiga suiqasd deb atadi va voqeada diniy ekstremistlar va aqidaparastlarni aybladi.

- 1999 yil 16-fevralda Toshkentda bir qator kuchli portlashlar yuz berdi.

- 13 dan 20 kishigacha halok bo‘lgan, 100 dan ortiq kishi jarohatlangan.

- ShHTga a’zolik

2001 yil 14-15 iyunda Shanxayda bo‘lib o‘tgan Shanxay forumi rahbarlarining yig‘ilishida O‘zbekiston tashkilotga qabul qilindi. Shundan so‘ng ShHT – Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi. Alyansning maqsadlari mintaqada barqarorlik va xavfsizlik,

shuningdek, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish deb nomlandi.

Farg'ona vodiysini larzaga solgan tun

2005 yilning 12-13 may kunlari Andijonda islomiy qo'zg'olonga urinish bo'lib, hukumat tomonidan bostirildi.

To'polonlarni qo'zg'atuvchilari Turkiston Islomiy Harakati (sobiq O'zbekiston Islomiy Harakati) deb ataluvchi terroristik tashkilotlar, Hizb-ut-Tahrir va uning bo'linmalaridan biri Akramiyalar edi.

Qurolli banditlar bir necha qamoqxonanazoratchisini otib tashladi, ikki mingga yaqin mahbusni ozod qildi, harbiy qism, Milliy xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi va viloyat hokimligi binosini egallab olishga urindi, biroq O'zbekiston huquq-tartibot idoralari shaharda tartib o'rnatdi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Andijondagi tartibsizliklarda 187 kishi qurbon bo'lgan, ulardan 60 nafari tinch aholi vakillari, 31 nafari huquq-tartibot idoralari xodimlaridir.

Qo'zg'olondan so'ng o'tkazilgan aksilterror tadbirlari davomida 94 nafar terrorchi yo'q qilindi. G'arb kuch ishlatalishni "nomutanosib" deb hisoblab, Toshkentning harakatlarini keskin tanqid qildi. Toshkent talabiga ko'ra, AQSh harbiy havo bazasi O'zbekiston hududidan olib chiqildi.

O'zbekiston bilan G'arb davlatlari o'rtasidagi munosabatlar keskin yomonlashdi. Yevropa Ittifoqi O'zbekiston rahbariyatiga qarshi sanksiyalar kiritdi. Yevropa Ittifoqi Andijon voqealari bo'yicha xalqaro tekshiruv o'tkazishni talab qilgan, biroq O'zbekiston rasmiylari buni rad etgan.

Bunga javoban O'zbekistonning yuqori martabali amaldorlariga nisbatan viza cheklvlari va qurol-yarog' embargosi shaklida sanksiyalar joriy etildi. Yevropa Ittifoqi sanksiyalari qurol embargosidan tashqari 2008-yil oktabr oyida olib tashlangan.

Toshkentdan Samarqandgacha — 2 soat

2011 yil 8-oktabr kuni "Afrosiyob" tezurar poyezdi Samarqandga ilk qatnoviniamalga oshirib, 344 km masofani ikki soatda bosib o'tdi. Ayrim uchastkalarda poyezdning maksimal tezligi soatiga 250 km ga yetdi.

O'zbekistondagi tezurar temir yo'l MDHda tezurar poyezdlar qatnovini amalga oshiruvchi Rossiyadan keyingi ikkinchi temir yo'l liniyasi hisoblanadi.

Islom Karimov davri nihoyasiga yetdi

2016 yil 2-sentabr kuni O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov 79 yoshida vafot etdi. Davlat rahbari bilan vidolashuv va dafn marosimi 3-sentabr kuni Karimov tug'ilib o'sgan Samarqand shahrida bo'lib o'tdi. Dafn marosimini tashkil etish bo'yicha komissiyaga O'zbekiston bosh vaziri Shavkat

Mirziyoyev rahbarlik qildi. Prezident vafoti munosabati bilan mamlakatda uch kunlik motam e'lon qilindi.

Rossiya prezidenti Vladimir Putin va bosh vazir Dmitriy Medvedev O'zbekiston rahbari vafoti munosabati bilan hamdardlik bildirdi.

2016 yil 2-sentabr kuni Islom Karimov 79 yoshida vafot etdi

Yangi O'zbekiston

2016 yil 4-dekabr kuni navbatdan tashqari prezidentlik saylovi bo'lib o'tdi va unda Shavkat Mirziyoyev 88,61 foiz ovoz to'plab, g'alaba qozondi. Islom Karimov vafotidan so'ng respublika rahbari vazifasini bajaruvchi etib tayinlangani uchun Mirziyoyev g'alabaga asosiy da'vogar hisoblangan. Mirziyoyev saylovoldi tashviqoti chog'ida birinchi prezident kursini davom ettirish niyatida ekanligini ma'lum qildi.

U mamlakatning blokdan tashqari maqomini saqlab qolish, shuningdek, uning hududida xorijiy harbiy bazalarni joylashtirish va uning chegaralaridan tashqarida harbiy xizmatchilarning bo'lishiga yo'l qo'ymaslikni taklif qiladi. Mirziyoyev ham Karimov kabi MDH davlatlari, birinchi navbatda, Rossiya bilan munosabatlarni rivojlantirish tarafdori. Ayni paytda u mintaqadagi qo'shnilar bilan munosabatlarni "qayta tiklay" boshladi.

2016 yil 4-dekabr kuni navbatdan tashqari prezidentlik saylovida Shavkat Mirziyoyev g'alaba qozondi.

"Qora" valyuta bozorining tugashi

2017 yil 5-sentabrdan boshlab O'zbekistonda tijorat banklarida xorijiy valyutani sotib olish va sotish boshlandi. Yuridik shaxslar ham, jismoniy shaxslar ham valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqini olishdi.

Avvalroq O'zbekistonda aholiga valyuta sotish taqiqlangan edi. Uni sotib olish uchun jismoniy shaxslar tijorat banklarida maxsus konversion kartalar ochishlari kerak edi.

O'shanda O'zbekistonda bir necha valyuta ayriboshlash mavjud edi – Markaziy bank rasmiysi, importchilar boshqaradigan birja kursi, shuningdek, "qora" bozor, dollar va so'm kupuralari.

Markaziy Osiyodagi birinchi AES

2018 yilning 19-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston prezidentlari Vladimir Putin va Shavkat Mirziyoyev "Rosatom" davlat korporatsiyasi tomonidan respublikada birinchi atom elektr stansiyasini qurish loyihasini ishga tushirishdi. AES qurilishi loyihasi VVER-1200 reaktorli ikkita energoblokni qurishni nazarda tutadi.

Quvvat bloklari "3+" avlodiga tegishli va MAGATEning zamonaviy xavfsizlik talablariga to'liq javob beradi. Qurilish qiymati taxminan 11 milliard dollarni tashkil qiladi.

Bundan tashqari, tadbir doirasida "Rosatom", O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va "O'zatom" agentligi o'rtaida O'zbekiston Respublikasi atom energetikasi sohasida ta'lif va kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi.

O'zbekistonda birinchi atom elektr stansiyasi qurilishini ishga tushirish marosimi.

Do'st davlatlar bilan erkin savdo zonasni

2018 yilning 11-dekabr kuni O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. Vladimir Putin bu qarorni Ittifoqning an'anaviy hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlashga yordam beradigan muhim va sifatli qadam deb atadi.

O'zbekiston YeOIIda kuzatuvchi maqomiga ega bo'ldi.

Toshkent kinofestivalining tiklanishi

2021 yil 28-sentabrdan 3-oktabrgacha Toshkentda qayta tiklangan "Ipak yo'li durdonasi" xalqaro kinofestivali bo'lib o'tdi. Birinchi marta bunday maqomdagi kinofestival 1968-yilda poytaxtda o'tkazilgan.

Bu Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi kinematografiyasining dunyodagi eng yirik forumi edi. Festival 1997-yildan beri o'tkazilmagan. Afsonaviy film namoyishi Shavkat Mirziyoyevning farmoni bilan davom ettirildi.

Toshkentda "Ipak yo'li gavhari" xalqaro kinofestivali bo'lib o'tdi.

Ijtimoiy va dunyoviy O'zbekiston

2023 yil 30-aprel kuni O'zbekistonda Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha referendum bo'lib o'tdi.

Ovoz berish bulletenida faqat bitta savol bor edi: Siz "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunini qabul qilasizmi?". Ovoz beruvchi xohish-irodasining variantlari: "ha" yoki "yo'q".

"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasini referendumda ovoz berganlarning 90,21 foizi qo'llab-quvvatladi.

O'zbekiston prezidenti "yangilangan Konstitutsiyada, birinchi navbatda, O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi to'g'risidagi qoida mustahkamlangan", deb ta'kidladi.

Yangi 2024-yilda ham O'zbekiston Respublikasi o'z ko'rsatkichlarini yangilash va ko'paytirish maqsadida ko'plab sarmoyaviy ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlarning avvali, debochasi sifatida eng avvalo Mustaqilligimiz va Yurtboshimiz olib borayotgan odilona siyosatni sabab qila olamiz. Yurtimiz tinch va osoyishta ekan yutuqlar va yuksalishlar soni ortib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.“O’zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida”, ”Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”, ”Vatan taraqqiyoti yo’lida” va boshqalar.